

SHAYBONIYLAR DAVLATINING HARBIY TUZILISHI VA JANG USULLARI

Fattoyeva Gavhar Hikmatillo qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakultet Tarix yoʻnalishi 302-guruh 3-kurs talabasi va Professor **Baxtiyor Mirkomilov**.

Anotatsiya: Tarixda mavjud boʻlgan har bir qudratli davlatning asosini uning qoʻshini tashkil qiladi. Qoʻshinini kuchliligi davlatning qudratidan ham darak beradi. Xuddi shunday tarixda kuchli qoʻshinga ega boʻlgan davlatlardan biri Shayboniylar davlati edi. Shayboniylarning qoʻshini tuzilishi ham jang usullari ham oʻzgacha edi. Qoʻshinni eng mashhur jang usullaridan biri bu - toʻlgʻama-deb nomlanadi. Aynan shu usul Shayboniylar xonlari toʻlgʻama-deb nomlanadi. Aynan shu usul Shayboniylar xonlari koʻplab gʻalabalarni olib kelgan va raqiblarini sarosimaga solib qoʻygan usullardan hisoblangan. Qoʻshinning harbiy qudrati oshishiga hukmdorlarning ham roli beqiyos boʻlganligini alohida taʼkidlash joiz. Bunday hukmdorlar safiga Shayboniylar, Abdullaxon va Ubaydullaxon kabi buyuk xonlarni kiritsak aslo notoʻgʻri boʻlmaydi. Zero, aynan ushbu hukmdorlar hukmronligi davrida qoʻshin qudrati ham, mamlakat qudrati ham yuksak darajaga koʻtarilgan.

Kalit soʻzlar: Qoʻshin tuzilishi, Toʻlgʻama, jang usullari, Shayboniylar, Abdullaxon, Ubaydullaxon.

Annotation: The bases of every powerful state in history is its army. The strenght of the army also inticates the pover of the state. Smilarly, one of the states that had a strong army in history was the Shaibani state. The sstructure of the army of the Shaibanetes and their fighting metdods were also different. O'n of the most popular methods of combating the army is the so called - tolgama. It was this methods that brought many viktories to Shaibani Khan and counfused his opponents. It is worth noting that the role of the rules in incereasing the military power of the army was incomparable. It Will not be wrong to include great khans like Shaibani Khan, Abdullah Khan and Ubaydullah Khan in the ranks of such rulers. After, all it was during the reighn of these rulers that both the power of the army and the power and the country rose to a high level.

Key words: Army structure, filing, battle medhods, Shaibani Khan, Abdullah Khan, Ubaydullah Khan.

"Shayboniylar sulolasidan kelib chiqqan barcha xonlar va sultonlar oʻzlarining barcha rejalarni amalga oshirishda Dashti qipchoqda yashayotgan koʻplab oʻzbek urugʻlarning harbiy majburiyatlar asosida lozim boʻlgan holda darhol toʻplanadigan juda koʻp sonli askar va qoʻshinlarga tayanar edilar. Qoʻshinlar tuzilishidagi asosiy mansabdorlar, yaʼni harbiy boshliqlar oʻnlik tizimida boʻlib temuriylar qoʻshinidagi qoʻmondonlik tarkibidan uncha farq qilmas edi. Asosiy farq baʼzi harbiy unvonlarning nomi shayboniylarda oʻzbekcha boʻlsa, temuriylarda turkiycha, arab va forsiycha ham atalavergan. Ammo qoʻshinlarni saflash, urush olib borish tartibi tubdan farq qilgan. Shayboniylar qoʻshinining oliy bosh qoʻmondoni xonning oʻzi boʻlgan, alohida korpuslarga oʻng qanot, soʻl qanot, qalb va qorovul, qoʻshinning orqa qismi (chindovuldumi) ga, xonning oʻgʻillari, qarindoshlari, yoki janglarda sinalgan ishonchli, tajribali askarboshilar-sultonlar boshliq qilib tayinlangan. Bundan tashqari qoʻshinning ichki qismi ham bir qancha mansablarga boʻlingan : mingboshi, yuzboshi, ellikboshi, oʻnboshi kabilarga boʻlingan. Xonlar va sultonlarning alohida topshiriqlarini bajaruvchi, ishonilgan kichik ofitseri - yasovul - keyinchalik Abdullaxon II davrida muboshir deb yuritilgan. Qurchi- xonaning va shaxsiy saroyini qoʻriqlovchi, qurollbardor, Tugʻbegi- xon

bayrog'ini ko'tarib yuruvchi yalovbardor, to'pchiboshi va ko'plab mansablar bo'lgan. Bular ichida Tanmachi (temuriylarda tavochi) qo'shin yig'uvchi mansabi ham alohida o'rin tutgan. Muhammad Shayboniyxon o'rta asrlardagi ko'pgina davlat arboblari singari mohir askarboshi edi. "U o'rta osiyoliklar ichki kuchlariga tayanib, yurishlari qilgan va oqibatda chegarasi Amudaryo doirasidan juda uzoqqa cho'zilgan bir mamlakatni bunyod etgan buyuk Sohibqironlarning oxirgisi edi", - deb yozgan edi bu haqda X. Vamber "1. Bu mamlakat avvalo

o'zini ta'qib qiluvchilari bilan keyinchalik qarindoshlari va nihoyat mazhabchilik uchun bo'lgan jang maydonlaridagi g'alabalar orqali barpo qilindi va mustahkamlandi. Xon janglarda shaxsan o'zi boshchilik qilib, tanglik holatda oddiy askar kabi janglarga kiravergan. Masalan, Shayboniyxon Husayn Boyqaroning Xorazmdagi hokimi Chin So'figa qarshi urushda qo'shinning ilg'origa boshchilik qilgan bo'lsa, 1500-yillarda Samarqanddagi jangda: "Shayboniyxon o'limga tik boqib, urushda shaxsan o'zi qatnashgan". Shuning uchun ham tarixchilar uning askarboshchilik va jangchilik mahoratiga yuksak baho bergan. Abdullaxonning jasurligi va askarboshchilik faoliyati ham har qanday shubha dan holidir. Bunga 1555- yilning may oyida Navro'z Ahmadxon buyrug'i bilan qamal qilingan Buxoroga yordam qilish uchun shoshilib kelayotgan Abdullaxonning Sulton Sayid va Do'stmuhammad Sultonlar boshchiligida Amudaryo bo'yidagi Farob qal'asi yaqinida 20 ming qo'shinga duch kelishi va ularga hech ikkilanmasdan hujum qilib, shaxsan o'zi jangga kirib dushman bayroqlari ga yetib borishi va uni otdan qulatib g'alaba qozonishi, shuningdek Ilono'tti darasida 30ming sonli qo'shin bilan juda ko'p sonli ikki qo'shin Boboxon va Darveshxonlarning 50ming kishilik qo'shinlari ustidan qilingan g'alabani ko'rsatish mumkin. Shayboniylar qo'shini asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan. Qo'shin tarkibi uning jangovar sarflanishi, jang qilish tartibi Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi, urush taktikasiga asoslangan bo'lib unga Shayboniyxon davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan bir qancha yangi jang usullari kiritildi. Xususan Bobur Mirzo Shayboniyxon qo'shini "To'lg'ama" jang usulini mukammal o'zlashtirganliklari haqida malumot beradi. Shayboniyxon qo'shini asosan qalb, barong'or, javong'or va hirovul (orqa qism) dan tashkil topgan. Qo'shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda O'g'lon deb atalgan. Jang vaqtida qo'shin oldida tez harakatlanuvchi kichik jangovar qism - ilg'or bo'lgan.

Shayboniyxon qo'shinida umumiy qism oldidan boruvchi " Qorovul"deb atalgan maxsus qism, qo'shinning o'ng va so'l qanotlari oldida boruvchi kichik g'o'l deb atalgan bo'linmalar va ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma - chanoh bo'lgan. Qo'shin tarkibida tug'chi qism ya'ni bayroq ostida ehtiyotdn turuvchi 20-30 ming kishilik jangovar harbiy bo'linma hamda zabongiri, ya'ni dushman tomondan yashirin ravishda "til" tutib keluvchi maxsus bo'linma va xabargiri - dushman to'g'risida umumiy malumot keltiruvchi bo'linmalar ham bo'lgan. Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan maxsus joy - borgoh hozirlangan. Qo'shinida saralangan o'zbek navkarlaridan tuzilgan xonaning qo'riqchilari ham katta rol o'ynagan. Shayboniylar qo'shinlari ham Chingizxon va Amir Temur qo'shinlaridek 10 minglik korpuslarga - tumanlarga bo'lingan. Unga no'yon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o'z navbatida minglik, yuzlik, o'nliklarga bo'lingan. Qo'shinini jangga hozirlash, ularni maoshini to'lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor - tavochi shug'ullangan. Qo'shinni qurol - yarog' bilan ta'minlashga mas'ul bo'lgan amaldor - jevachi bo'lib, u xonning qurol aslahalariga ham javobgar bo'lgan. Harbiy amaldorlari va navkarlarga xazinadan beriladigan yillik maoshdan tashqari harbiy yurishlar paytida qo'lga kiritiladigan o'ljadan ham berib turilgan. Askarlarning qurol aslahalari o'zgarishi Abdullaxon II davriga to'g'ri keladi. Harbiy harakatlar vaqtida qo'shin o'q - yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurollaridan foydalangan. Abdullaxon II davrida piltla miltiqlari paydo bo'lgan.

Qo'shinda himoya vositasi sifatida qalqon, hamda temir simdan mayda qilib to' qilib, usti ipak va bahmal mato bilan yopilgan sovu(jovshan), yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kabilardan foydalanilgan. Abdullaxon II davrida qo'shinda zambaraklar ham joriy qilingan bo'lib, qo'shinda to'pchiboshi mansabi paydo bo'ladi va maxsus to' pchilar qismi ham shakllantiriladi. Harbiylar ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan bo'lib, ular sodir etgan jinoyat va jazo turlari maxsus harbiy sudyalari - qozi askar va mufti askarlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Abdullaxon II armiyasida tosh, o't-olov otuvchi to'plar zambarak va to'fanglar (miltiq) lar ham qo'llanilgan. Ammo yaxlitligicha olinsa Shayboniylar davlatining armiyasi harbiy texnika va tartibi jihatidan Yevropa armiyasidangina emas, yaqin qo'shnilari - Turkiya, Eron va Hindiston armiyasidan ham ortda qola boshlagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Semenov A. A. K voprosu o proisxoje-denii i sostave uzbekov Sheybani-xana. –Stalinabad: 1954. –S.70.
2. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1990. –B.91–92.